

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUT
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

KOMILOV NODIRBEK BOKIJONOVICH

**TIBBIY TA‘LIM JARAYONIDA XORIJIY TALABALAR
EKSKLYUZIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI
(TIBBIYOT TARIXI FANINI O‘QITISH MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Komilov Nodirbek Bokijonovich

Tibbiy ta’lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari (tibbiyot tarixi fanini o‘qitish misolida).....5

Комилов Нодирбек Бокижонович

Технологии развития эксклюзивных компетенций иностранных студентов в процессе медицинского образования (на примере преподавания истории медицины).....31

Komilov Nodirbek Bokijonovich

Technologies for developing exclusive competencies of foreign students in the process of medical education (using the example of teaching the history of medicine).....59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUT
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

KOMILOV NODIRBEK BOKIJONOVICH

**TIBBIY TA‘LIM JARAYONIDA XORIJIY TALABALAR
EKSKLYUZIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI
(TIBBIYOT TARIXI FANINI O‘QITISH MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Ped280 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fjsti.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Kadirova Munira Rasulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiyeva Turg‘unoy Ahmadjanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayev Ravshanbek Mamatxanovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Abdullayev Safibullo Xabibullayevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01-raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2024 yil “___” _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Sidikov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

M.J.Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.n,
dotsent

N.Sh.Erkaboyeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda rivojlangan mamlakatlar tibbiy ta'lim tizimida har tomonlama yetuk va barkamol tibbiyot xodimlarni tayyorlash ularning kasbiy tafakkurini rivojlantirish orqali tibbiyotning tarixi, buguni va kelajagini o'ziga xos mexanizmlarini tadbiq etishga jumladan, tibbiyot tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borish hamda dunyo tibbiyotida xorijiy talabalarning kasbiy madaniyati, kasbiy munosabati bevosita uning kasbiy deontologiyasi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda "Tibbiy axloqning xalqaro kodeksi"da belgilangan vazifalarni zamonaviy tibbiyotning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishlarida, tibbiy ta'limning o'z oldiga qo'ygan strategiyasini belgilash zaruratini ko'rsatmoqda.

Jahonda mazkur muammo bo'yicha yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarda, jumladan, Djon Xopkins universitetida (AQSH) yoshlarda tibbiyot tarixini o'rganishda tarixiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha intensiv ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi multimedia o'quv markazi tashkil etilgan, shuningdek, Kembridj universitetida (Buyuk Britaniya) bag'rikenglik "targ'iboti"ga ixtisoslashtirilgan format sifatida "internet loyihasi" amalga oshirilgan, ya'ni interaktiv tarmoqda insonlarni muammo yechimiga jalb qilish, shifokorlik, pedagogik kasbidagi insoniy munosabatlar tizimi, erkin tajriba almashinuvi va madaniyatlararo o'zaro tushunish texnologiyasiga asoslanganligi, shuningdek, eksklyuziv kompetensiyani talabaning layoqati bilan o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali bo'lajak shifokorlarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish va uni amaliyotda qo'llay olishi muhim dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish tibbiy ta'limga doir strategiyalarni ishlab chiqish tibbiy ta'lim uchun ham muhim ahamiyatga ega, u bo'lajak shifokorlarni jamiyatda samarali faoliyat yuritish uchun tayyorlashga, unda "Mustaqillik g'oyalariga sadoqat, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat kabi milliy an'analarga sodiqlik"¹ kabi muhim shaxsiy sifatlarini shakllantirishga qodir. Binobarin, tibbiyot tarixi bilan bog'liq fanlarni o'rganish jarayonida talabalarning tarixiy tafakkuri bilan birga bugungi tibbiyotni qiyosiy tahlil qilish, kasbiy fazilatlarining ijtimoiy – pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, kasbiy tafakkurini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-son "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019- yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 20.04.2017y., <https://lex.uz/docs/3171590>

vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy – ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Tibbiyot ta’lim muassasalari talabalariga “Tibbiyot tarixi” fanini o‘qitishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari va tadqiqot muassasalarida, jumladan, Djon Xopkins universitetida (AQSH), Yale universiteti (AQSH), Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya), Tokio va Kioto universitetlari (Yaponiya), Ta’lim akademiyasi (Rossiya), Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida (O‘zbekiston) tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy tibbiyot tarixini tadbiq etish bo‘yicha yangi qator ilmiy natijalar olinib, jumladan, Djon Xopkins universitetida (AQSH) - tibbiyot tarixini o‘qitishda zamonaviy didaktik materiallarni qo‘llash masalasi bo‘yicha dasturi ishlab chiqildi. Oksford universiteti (Buyuk Britaniya) - tibbiyot tarixiga oid o‘quv-dasturiy va metodik materiallar yaratildi, Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya) - tibbiyot tarixi fani bo‘lajak shifokorlar tibbiy deontologiyasining ajralmas qismi masalalari o‘rganilgan; Yale universiteti (AQSH) - Yevropa tibbiyotdagi yutuqlarning ta’lim bilan o‘zaro muvofiqlashtirildi; Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti (O‘zbekiston) - xorijlik talabalarga tibbiyot tarixini o‘rgatishda ularning eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari takomillashtirilgan.

Jahon tibbiyot ta’limini rivojlantirish hamda tibbiyot fanlarini o‘qitishni metodik takomillashtirish masalalari yuzasidan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlarni olib borishni talab etmoqda, jumladan, talabalarga mutaxassislik fanlarini o‘qitishda o‘tmish, bugun, kelajak tamoyili asosida klinik fikrlashni shakllantirishning pedagogik – psixologik asoslarini takomillashtirish, tibbiy ta’limda fanlararo integratsiyaning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, talabalarning eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishning diagnostik vositalarini takomillashtirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim berish, tibbiy ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha ham bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Aytish mumkinki, tibbiyot tarixi pedagogikasi mustaqil tadqiqot ob‘yekti sifatida ilk marotaba tahlil qilinib, unga ilmiy baho berildi. Mazkur mavzuning ba’zi jihatlari ayrim o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy asarlari, tadqiqotlari va maqolalarida yoritilgan bo‘lib, ulardagi ma’lumotlar tibbiyot tarixi pedagogikasi haqida xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Ushbu yo‘nalishning ayrim jihatlari mahalliy pedagog - olimlar A.Kadirov³,

² <https://www.jhu.edu/>, <https://www.yale.edu/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.u-tokyo.ac.jp/en/>, <https://www.ras.ru/>, <https://www.fjsti.uz/> va boshqa manbalar asosida tayyorlangan

³ Кадиров А. История медицины Узбекистана. – Ташкент: Издательско-полиграфическое объединение имени

M.Kadirova⁴, Sh.Ergasheva⁵, N.Axmedova⁶, G.Qurbanova⁷ va boshqalarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan, xolos. Shu ma'noda, ushbu dissertatsiya ishi mamlakatimizda tibbiyot tarixi pedagogikasi yo'nalishida kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi.

Tibbiyot tarixi fanining ilmiy-pedagogik jihatdan ahamiyati va xorijiy talabalarning bo'lajak shifokor sifatidagi eksklyuziv kompetentligiga xos fazilatlarga ega shaxs sifatida tayyorlash nuqtayi nazaridan nechog'lik muhimligi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan R.Simonyan⁸, T.Sorokina⁹, M.Multanovskiy¹⁰, M.Abramenko¹¹, Yu.Lisisin¹², Z.Yax'yayeva¹³, O.Kisenko¹⁴, A.Ivanov¹⁵, L.Semyonova¹⁶, Y.Ganitkevich¹⁷, O.Kozachenko¹⁸ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mavzuga oid masalalar bo'yicha xorijlik olimlar S.Parker¹⁹, V.Binam²⁰, N.Magner²¹, M.Jeskon²², J.Karamisiu va D.Arsella²³, D.Xouell²⁴, K.Lundmerer²⁵,

Ибн Сины, 1991. – 234.с.

⁴ Кадирова М. Тиббий таълим жараёнида касбий компетентликни методик такомиллаштириш технологиялари (тиббийта педагогикани ўқитиш мисолида). Педагогика фанлари доктори ... дисс. – Наманган., 2022. – 202.б.

⁵ Эргашева Ш. Тиббий таълим талабаларини касбий фаолиятга тайёрлашда коммуникатив компетентлигини ривожлантириш технологияси. Педагогика фанлари номзоди (PhD) ... дисс. – Фарғона., 2022. – Б.176.

⁶ Ахмедова Н. Бўлажак шифокорларда касбий – маънавий фазилатларни тарбиялаш тизимини ривожлантириш. Педагогика фанлари номзоди (PhD) ... дисс. автореферат. – Наманган 2020. – 14 б.

⁷ Курбанова Г. Тиббий олий таълим муассасалари талабаларида педагогик мулоқот воситасида касбий тафаккурни ривожлантириш. Педагогика фанлари номзоди (DSc) ... дисс. автореферати. – Самарқанд., 2022. – 12 б.

⁸ Симонян Р. История медицины: с древнейших времен до современности. – Чебоксары: Среда, 2020. –209.с.

⁹ Сорокина Т. История медицины. – Москва: Академия, 2018. –209.с.

¹⁰ Мультиановский М. История медицины. – Москва: Молодость, 2017. –213.с.

¹¹ Абраменко М. История медицины. – Гомель: Университет, 2019. – 188.с.

¹² Лисицын Ю. История медицины. – Москва: Геотар-мед, 2014. –392.с.

¹³ Яхъяева З. История медицины. – Грозный: Университет, 2016. – 100.с.

¹⁴ Киценко О.История медицины. – Волгоград: Издательство ВолГМУ, 2016. –288.с.

¹⁵ Иванов А. История медицины. – Тверь: Молодость, 2021. –135.

¹⁶ Zhuravleva T Improving the teaching of history of medicine in medical schools of the country during reorganization of the activities of the institutions of higher education // Sovetskoe Zdravookhranenie // – Moscow, 199. №(9):62-6. –P. 75-98.

¹⁶ Semyonova L. The importance of studying history of medicine and language training for the development of professional competencies of medical students // Medicii perpektivi, Tom 24, 2019. –P.31-35.

¹⁷ Ganitkevich Y. History of medicine as subject in the Higher Medical Schools of Ukraine // Messenger of social medicine and Public Health Organization in Ukraine, № 1, 2011. – P.72.

¹⁸ Kozachenko O. History of medicine as a science and subject of teaching in the World. Introduction to history of medicine // Med.education. 2011, №1. –P 28.

¹⁹ Parker S. A Short History of Medicine. – London: Dorling Kindersley Limited, 2019. – p.400.

²⁰ Bynum W. The History of Medicine: A Very Short Introduction. – London: OUP Oxford, 2018. – p.184

²¹ Magner M., Kim J. A history of medicine. – Washington: Taylor & Francis group, 2018. – p.417

²² Jackson M. The Oxford handbook of the history of medicine. – New York: Oxford university press, 2019. – p.635.

²³ Caramiciu J, Arcella D, Desai MS. History of medicine in US medical school curricula // Anesthesia History, 2015, № 1(4). – P.111–114.

²⁴ Howell J. An elective course in medical history // Academic Medicine, 1991, № 66(11). -P.668–693.

²⁵ Lundmerer K. The History of medicine in medical education // History of Medicine, Allied Sciences, 2015, № 70. – P. 656–660.

S.Fatovic²⁶, J. Shedlok va R.Sims²⁷, S.Sherd²⁸, S.Szulz²⁹, N.Metkalf va A.Braun³⁰, Ye.Armosida va N.Aldinilar³¹ o‘z tadqiqotlarida atroflicha fikr yuritishgan. (Bu haqda dissertatsiyaning 2-bobida to‘liq ma’lumot keltirilgan).

Mavjud tadqiqotlar tahlili bugungi kunda tibbiyot tarixi fanining xorijiy talabalarning bo‘lajak shifokor sifatidagi eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ayrim ilmiy-pedagogik muammolar mavjudligini ko‘rsatdi:

tibbiyot tarixi fanini o‘qitish jarayonida hap bir xorijiy talabalarning eksklyuziv kompetentligini tarbiyalash va ushbu masalaning nazariy asoslari hamda amaliy metodik jihatlarining modernizatsiya qilinmaganligi;

tibbiy ta’lim amaliyotida shifokor – pedagoglarga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi, lekin ularning o‘quv jarayoniga tayyorlash uchun nazariyasi va amaliyotida yetarli darajada ilmiy-uslubiy ta’minotning mavjud emasligi;

o‘quv rejaga muvofiq, tibbiyot tarixi fani faqat kasalliklar tarixiga aylanib qolganligi.

Ushbu muammolarning mavjudligi shifokor – pedagoglarni tayyorlashda tibbiyot tarixi fanini yangi metod va yo‘nalishlar orqali o‘qitish, hamda tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga joriy qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasida ilmiy – tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy pedagogikani rivojlantirishda fanlararo integratsion jarayonlarni tashkil etishning istiqbollari” loyihasi doirasida bajarilgan. (2023-2024 y.)

Tadqiqotning maqsadi xorijiy talabalarga tibbiyot tarixi fanini o‘qitish jarayonida eksklyuziv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning yangi imkoniyatlari va eksklyuziv kompetensiyalarni metodik takomillashtirish texnologiyalari bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiy ta’lim jarayonida tibbiyot tarixi fanini o‘qitishning didaktik imkoniyatlari va eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslarini yoritish;

tibbiy ta’lim jarayonida tibbiyot tarixi fanini o‘qitishda xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish;

²⁶ Fatovic-Ferencic S. The history of medicine teaching program in Croatia // Academic Medicine, 2003, №78(10). – P. 1028–1030.

²⁷ Shedlock J, Sims RH, Kubilus RK. Promoting and teaching the history of medicine in a medical curriculum // Journal of Medical Library Association, 2012. №100. – P.138–141.

²⁸ Sheard S. Developing history of medicine in the University of Liverpool medical curriculum 1995–2005 // Medical Education, 2006. № 40(10). – P.1045–1052.

²⁹ Schulz S. How Important is medical ethics and history of medicine teaching in the medical curriculum? An Empirical Approach towards Students’ views // GMS Zeitschrift für medizinische Ausbildung, 2012. № 29 (1). – P.223-245.

³⁰ Metcalfe NH, Brown AK. History of Medicine Student Selected Components at UK medical schools: a questionnaire-based study // Journal of Social Medicine, 2011. № 2(77). – P.1–6.

³¹ Armocida E, Nicoli Aldini N, Bussolati O. How do students approach the study of the History of Medicine? Some considerations after the final exams at the first year and fourth year // Acta Biomed, 2021. № 12(2). – P.138-149.

tibbiy ta'lim jarayonida tibbiyot tarixi fanini o'qitishning metodik ta'minotini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslash va amaliyotda sinab ko'rish;

tibbiy ta'lim jarayonida tibbiyot tarixi fanini o'qitishning pedagogik modelini takomillashtirish hamda texnologiyalarini ishlab chiqish;

tibbiyot tarixi fanini o'qitishda xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida tibbiy ta'lim jarayonida tibbiyot tarixining xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni olingan bo'lib, tajriba – sinov-ishlarida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot institutining 641 nafar respondent – talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini tibbiy ta'lim jarayonida tibbiyot tarixini o'qitishda eksklyuziv texnologiyalarning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy – metodik adabiyotlarni qiyosiy tahliliy o'rganish, modellashtirish, anketa so'rovlari, testlar, kuzatuv, pedagogik kuzatish, suhbat, integral diagnostika, sotsiometriya, pedagogik eksperiment, kontent tahlil, intervyu, matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini loyihalash bosqichlari tibbiyot tarixi, valeologiya, sog'liqni saqlashda boshqaruv, tibbiyot kasbiga kirish kabi mutaxassislik fanlari bilan tizimli integratsiyalash orqali xorijiy talabalarning abstrakt fikr yuritish, nostandart vaziyatlarda harakat qilish kabi kompetensiyalari va uning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarning tibbiyot tarixini o'rganishda "Tib qonunlari"ning etimologik jihatlari, kasbiy kompetentlikning gnoseologik, analitik, kommunikativlik, deontologik komponentlari kasbiy fanlarni differentsiallash orqali rivojlantirilgan;

tibbiyot tarixini o'qitish jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini oshirish maqsadida "Explore, pair, share", "Connect-Extend-Challenge" modellarini qo'llash orqali assimilyatsiya natijalariga hamda nazariy – tadqiqotchilik, amaliy izlanish kabi usullariga ustuvorlik berish asosida talabalarning tarixiy tafakkuri rivojlantirilgan;

tibbiyot tarixini o'qitish jarayonida xorijiy talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi, ta'lim traektoriyasi, talaba shaxsining o'quv faoliyati subyekti sifatida namoyon bo'lishi, individual mashg'ulotlarning integrallashuvi yaxlitligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

tibbiy ta'limda "Xorijiy talabalarning bo'lajak shifokor sifatida tibbiyot tarixini o'qitish orqali eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish" modeli tibbiyot tarixi fanining strategik rejasi hamda kasbiy tayyorgarligini kreativ, produktiv va reproduktiv darajada baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini modulli o'qitish texnologiyalarining indikatorli tuzilma bilan adaptiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalari xorijiy talabalarida tibbiyot tarixini o'qitishning va eksklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti yaratilgan;

xorijlik talabalar uchun tayyorlangan "The newest history of Uzbekistan" darsligini yaratilgan;

xorijlik talabalar uchun tayyorlangan "History of medicine" darsligini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga tarixiy, falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlar, hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va xorij olimlari, shuningdek, kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligiligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xorijiy talabalarda tibbiyot tarixi fanini o'qitish orqali eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy – pedagogik qarashlar, nazariy yondoshuvlarni yoritib berilganligi, tibbiy ta'lim talabalarining eksklyuziv kompetentligi, kasbiy tafakkurini rivojlantirish jarayonlarining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, uni tashkil etish yo'llari shakl va metodlari, o'quv bilish faoliyatini tashkil etishga oid ilmiy – metodik tavsiyalardan tibbiy ta'limda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tibbiy ta'lim talabalarida eksklyuziv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish, mazmunini boyitish, o'quv – tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligini ta'minlash tamoyillari va vositalari tibbiy ta'lim talabalarining eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan professional ta'lim hamda tibbiy ta'lim pedagoglarini qayta tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy ta'lim jarayonida tibbiyot tarixining xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni va ilmiy natijalar asosida:

tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini loyihalash bosqichlari tibbiyot tarixi, valeologiya, sog'liqni saqlashda boshqaruv, tibbiyot kasbiga kirish kabi, mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash orqali xorijiy talabalarining abstrakt fikr yuritish, nostandart vaziyatlarda harakat qilish kabi kompetensiyalari va uning didaktik imkoniyatlarini oshirish kabi jihatlar Turkiyaning Egey universiteti ta'lim jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 31-avgustdagi PM – 42-son ma'lumotnomasi). Natijada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot tarixi fanini o'qitishda xorijiy talabalarining tibbiyot tarixini o'qitish metodikasi takomillashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarning tibbiyot tarixini o'rganishda "Tib qonunlari"ning etimologik jihatlarini kasbiy kompetentlikning gnoseologik, analitik, kommunikativlik, deontologik komponentlari Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining

60910200 – Davolash ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun "Tibbiyot tarixi" modulini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 31-avgustdagi PM-42-son ma'lumotnomasi). Natijada fanlararo bog'liqlikni ta'minlash maqsadida integral ma'ruzalar samaradorligi oshirilgan;

tibbiyot tarixini o'qitish jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini oshirish maqsadida "Explore, pair, share", "Connect-Extend-Challenge" modellarini qo'llash orqali assimilyatsiya natijalariga hamda nazariy – tadqiqotchilik, amaliy izlanish kabi usullarini tadbiq etishga doir fikrlaridan 60910200 – Davolash ishi ta'lim yo'nalishi xorijiy talabalari uchun tayyorlangan "History of medicine" nomli darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 - yil 25 - avgustdagi 391133-son guvohnomasi). Natijada xorijlik talabalarning fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari rivojlantirilgan;

tibbiyot tarixini o'qitish jarayonida xorijiy talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi, ta'lim traektoriyasi, talaba shaxsining o'quv faoliyati subyekti sifatida namoyon bo'lishi, individual mashg'ulotlarning integrallashuvini barqaror ta'minlashga doir amaliy taklif va tavsiyalaridan 60910200 – Davolash ishi ta'lim yo'nalishi xorijiy talabalari uchun tayyorlangan "History of medicine" nomli darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 25-avgustdagi 391133-son guvohnomasi). Natijada talabalarni tibbiyot tarixi fanini o'rganishda qiyosiy tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, 2 ta respublika va 7 ta xorijiy jurnallarda, 1 ta darslik, 1 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, 200 sahifa matn, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharxi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tibbiyot tarixi fanining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va uning nazariy metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tibbiy ta'limda tibbiyot tarixi fanining shakllanishi, vazifalari, ta'lim va

kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berilayotgani, tibbiy ta'limning muammolari, tibbiy ta'limda "shaxs" muammosi, oliy tibbiy ta'limning umumiy tendesiyalari va qonuniyatlarini rivojlantirishda tibbiyot tarixi fanining o'rni, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari xorijiy talabalarining eksklyuziv kompetentligini tartibga soluvchi innovasion pedagogik tizimlar va prinsiplarini amalga oshirish masalalari yoritilgan.

Bunda dissertatsiya mavzusining o'ziga xosligi tibbiy ta'lim xorijiy talabalarini tibbiyot tarixi orqali o'qitishda eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotlar davomida tibbiyot tarixining muammolari o'rganilib quyidagicha ta'rif berilgan.


Zamonaviy tibbiyot tarixi kursi – sillabusning barcha tarkibiy qismlarini, shuningdek, turli tarixiy bosqichlarda tibbiyot fanining kelib chiqishi va rivojlanishi haqida yaxlit tasavvurni shakllantirishga qaratilgan tizimdir. Zero, Tibbiyot bir vaqtning o'zida fundamental va amaliy fan bo'lib, u nazariy umumiy, ilmiy bilimlarni, tushunchalarni, texnologiya, ko'nikmalar va shifokorlik san'atini ajoyib tarzda birlashtiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Oliy tibbiy ta'lim tizimidagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – xalqaro akademik standartlarga mos keladigan professional tibbiyot xodimlarini tayyorlash orqali samarali tibbiyot tizimini yaratish va yangi sifat darajasiga erishishdan iborat. Bunda innovatsion ta'lim klasterlari, samarali ta'lim uslublari va amaliyotlarini faol joriy etish orqali o'quv jarayonini tashkil etish va ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, tibbiyot tarixi fani tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fan sifatida o'zining tizimli va ensiklopedik tabiati (u fan tarixi va falsafasining bir qismi bo'lganligi sababli) va zamonaviy ilmiy tibbiyot va ratsional tibbiyot rivojlanishining o'tgan asrlardagi uzluksizligini tushunishga asoslangan dunyoqarashning shakllanishi asosida joriy etilgan edi. Shuningdek, u ilm-fan tarixining bir qismi sifatida tadqiqotchiga keng ko'lamlı tadqiqot vositalaridan foydalanishni talab qiladigan ko'p qirrali intellektual muammolarni taklif qiladi va turli klinik ixtisosliklar uchun rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi.

XIX asrda AQSHda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda tubdan yangi yondashuv joriy etildi. Yangi ta'lim mafkurasining asosi bo'lib nazariy va klinik tayyorgarlikning bosqichma-bosqich yondashuvi va uzluksizlik tamoyillari bo'ldi. Amalda, bu umumkasbiy fanlarni o'qitishdan klinik fanlarni o'qitishga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini bekor qilishga olib keldi. O'quv rejasini tashkil etishga bunday yondashuv fanlarning yo'nalishini taqsimlashni o'zgartirishga imkon berdi va ko'pchilik fanlarning semestrga ajratilishi tufayli klinik ta'limga erta bosqichda o'tishni ta'minladi va tabiiy, mumkasbiy va klinik fanlar kabi tushunchalarni yuzaga keltirdi³².

³² Jones, David S., Jeremy A. Greene, Jacalyn Duffin, and John Harley Warner. Making the Case for History in Medical Education // Journal of the History of Medicine and Allied Sciences. № 4 (November 13). – P.638.



1-rasm. Xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish komponentlari

Rossiya va MDH davlatlarida esa tibbiyot tarixi kursi dastlab tibbiyot fakultetida boshqa fanlarning bir qismi sifatida o'qitilgan. Uzoq vaqt davomida ushbu fanni klinik yo'nalishlar o'qituvchilari (umumiy terapiya, sud tibbiyoti, fiziologiya, jarrohlik patologiyasi, asab tizimi va ruhiy kasalliklar) o'tishgan edi. Tibbiyot tarixi 3-kursda o'qitilib, birinchi kursda esa (umumiy nazariy bo'limda) tibbiyot ensiklopediyasi kursi o'qitildi. Aynan shu tarzda tibbiyot sohasida "to'liq bilimlar bo'yicha o'qitish" olib borildi va talabalar fan tarixi va uning tarkibiy qismlari haqida tizimli tasavvur hosil qildilar³³.

Shuningdek, yangi diagnostika usularining kashf qilinishi va kasalliklarni davolash tibbiyotni shunchalik boyitdiki, natijada unda yuz yillar oldin mavjud

³³ Barsu C. History of Medicine between tradition and modernit // Clujul Medical, 2017. № 90 (2). –P. 244.

bo'lgan "shifo sanati"ga o'rniga zamonaviy tibbiyot vujudga keldi. Biroq tibbiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimgi davrlarda shifokorlar kasalliklarni erta boskichlarda aniqlashga, uning sababini topishga va eng muhimi – profilaktik chora tadbirlarni o'tkazish (donozologiya) va hayot tarzini o'zgartirish orkali kasallikni oldini olishga harakat qilishgan.

Tibbiyot tarixining fan sifatida rivojlanishini shartli ravishda uchta davrga ajratish mumkin:

Birinchi davr - tibbiyot olamida ma'lumotlarni yig'ish va to'plash bilan bog'lik. Bu Gippokrat davridan boshlanib hozirgi vaqtgacha yakunlanmagan eng davomli davr bo'lib, shifokorlik bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va barcha yo'nalishlarda keng ma'noda tibbiy yordamni ko'rsatish bilan bog'liq.

Tibbiyot tarixi to'g'risidagi ko'p asarlar o'rta asrlarda Sharqda paydo bo'ldi. Abu Xasan al-Bayxakiy, Ibn al-Kiftiy, Ibn Abu Usaybia, Abu Bakr Ibn al-Xalikon kabi olimlar mehnatida Abu Bakr Ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Sharafuddin Ilokiy, Najibuddin Samarkandiy, Ismoil Jurjoniyy va O'rta Osiyodagi boshka taniqli tabiblar hayoti va faoliyatidan qiziq ma'lumot va dalillar keltirilgan. Biroq bu kabi asarlar kam va qismlari tarkalib ketgan, shuning uchun ularni tibbiyot tarixi sohasida ilmlar tizimi deb hisoblab bo'lmaydi.

Ikkinchi davrda (XVIII asrdan XIX asrgacha) yig'ilgan ma'lumotlarni o'rganish va muhokama qilish tizimlashtirildi. Bu davrda Germaniyada K. Shpringl, V. Undirlix, G.Pushman, Yu.Pagel, A.Girsh, Fransiyadan E.Litre, Sh. Daramberlar ushbu sohada ijod qilishdi³⁴.

Uchinchi davr – oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiyot tarixi"ning birinchi kafedralarini shakllantirish va tibbiyot tarixini alohida fan sifatida shakllanishi bilan bog'liq. 1894-yil Moskva universitetining tibbiyot fakultetida tibbiyot tarixining birinchi kafedrasini ochildi.

Turli klinik fanlarning hozirgi holati ko'pincha tadqiqotchilar tomonidan ularning ontologik rivojlanishi kontekstida tahlil qilinadi. Bu muammo alohida fanlar tarixi bo'yicha kurslar doirasida hal qilinadi, ular asosan tadqiqot usullarining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixini taqdim etadi. Biroq, tibbiyot tarixini o'rganishda deyarli har doim olimlarning nomlarini, ularning ixtirolari va kashfiyotlarini taqdim etish, iloji boricha ko'proq sana va voqealarni yoritish vasvasasi mavjud. Bularning barchasi ilmiy bilimlarning rivojlanish tendensiyalarini yaxlit ko'rishni ta'minlamaydigan, intizomning ma'nosini qadrsizlantiradigan tibbiyot tarixiga nofenomenologik yondashuvning yorqin misolidir.

Tibbiyot tarixi moduli dasturi davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan va o'quv rejaning klinik oldi moduli blokiga taalluqli bo'lib, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan barcha tibbiy fanlarni o'qitishda bog'lovchi bo'g'im sifatida talabalarning ilmiy tafakkuri, keng dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, tibbiy kasbiy etika tamoyillari asosida tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Fanning asosiy maqsadi - talabalarni qadimgi davrdan hozirga qadar rivojlanib kelayotgan tibbiyot tarixi bilan tanishtirish, umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga karatilgan.

³⁴ Kushner HI, Leighton LS. Humanities in the Twenty-First Century. - London: Palgrave Macmillan, 2013. – P. 118.

Fanning vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- talabalarni tarixiy voqealar asosida tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasining yutuqlari va istiqbollari obyektiv tahlil qilishga o'rgatish;
- tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash;
- insoniyatning rivojlanishi tarixidagi buyuk sivilizatsiyalarning tibbiyot sohasidagi kashfiyotlarining ahamiyatini ochib berish;
- buyuk allomalar, dunyoning taniqli olimlari va shifokorlari hayoti va faoliyati bilan tanishtirish;
- O'zbekiston hududida tibbiyotning o'ziga xos bo'lgan rivojlanish tarixini asoslash;
- tibbiyot etikasi tamoyillarini singdirish;
- yuqori axloqiy fazilatlar - o'z kasbiga muhabbat, burchga sadoqat, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash;
- ilmiy va madaniy dunyoqarashni kengaytirishdan iborat.

Talaba tibbiyot tarixini o'rganish mobaynida quyidagi malakalarga ega bo'lish lozim:

- qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha dunyoning turli mamlakatlarida tibbiyot rivojlanishining asosiy bosqichlari va umumiy qonuniyatlari;
- turli tarixiy davrlardagi (ibtidoiy jamiyat, kadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi va eng yangi davrlar) davolash va tibbiyot rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari;
- ma'naviy madaniyatining rivojlanishi jarayonida yirik sivilizatsiyalarning tibbiyotdagi yutuqlari;
- insoniyat tarixida dunyoning taniqli shifokorlarining tibbiy fanlar va tibbiy amaliyot rivojlanishiga qo'shgan hissalarini;
- O'zbekiston hududida qadimgi davrdan hozirgi kungacha tibbiyotning rivojlanishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- insoniyat tarixining turli bosqichlarida tibbiy fikr va tibbiy amaliyot rivojlanishining mantig'i va qonuniyatlarini;
- bemorlar bilan munosabat jarayonida tibbiyot tarixi, madaniyati va etikasi tarixi bo'yicha olgan bilimlarini;
- tibbiy amaliyotda insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar g'oyalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- mustaqil fikr bildirish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ommaviy nutq, munozara va davra suhbatlari yuritish, tibbiyot etika tamoyillarini qo'llay olish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanni o'rganish orqali xorijiy talabalar quyidagi kompetensiyalarni egallashi lozim:

1. Abstrakt fikr yuritish, hodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va axloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan

foydalanishga tayyorlik;

5. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

6. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, tibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

7. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

8. Tibbiy hujjatlarni yuritishga tayyorgarlik.

Ushbu kompetensiyalar xorijiy talabalarning kelgusida mutaxassislik fanlarini (klinik fanlar) o'rganishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiyot tarixining ilmiy - amaliy vazifalarini tibbiy ta'lim jarayonining vazifalari bilan aralashtirmaslik kerak. Tibbiy ta'limning asosiy vazifalari o'quv jarayonini tavsiflovchi qonuniyatlarni, tamoyillarni rivojlantirish tendensiyalarini aniqlashdan iborat bo'lishi zarur.

Tibbiyot tarixi fanini o'qitish jarayonida xorijiy talabalarni bo'lajak shifokorlar sifatida tayyorlashning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiylashuv komponentlaridan foydalanish, davlat ta'lim standartining maxsus talablari, o'quv dasturlari, amaliy mashg'ulotlar uchun tuzilgan uslubiy ko'rsatmalar, dars jarayonida yuzaga keladigan muammolarni modellashtirish hamda hal qilish xususiyatlaridan kelib chiqib belgilangan.

Ushbu qonuniyatlar va tendensiyalarni aniqlash oliy tibbiy ta'lim sohasidagi tibbiyot tarixining global vazifasi, innovatsion pedagogik tizimlarni asoslash bilan bog'liqdir, ya'ni tibbiyot tarixini innovatsion metod orqali o'qitish tizimini joriy etish-o'qitish tamoyillari va prinsiplariga asoslanadi. O'qituvchilar va talabalar faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim jihat - insonparvarlashtirish, ta'lim mazmunining ilmiy mohiyati, mavjudligi va izchilligi, o'qitish metodikasining ko'rinishi, uning deontologik va kasbiy yo'naltirilganligidadir.

Ikkinchi bob **“Tibbiy ta'limda tibbiyot tarixining rivojlantirish texnologiyalari va didaktik imkoniyatlari”** deb nomlanib, unda tibbiyot tarixini o'qitishning xorijiy tajribalari tahlili va tibbiyot tarixini o'qitishning didaktik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Shifokorlar va tarixchilar uzoq vaqtdan beri tibbiyot ta'limida tibbiyot tarixining rolini aniqlash uchun muntazam bahs qilib kelmoqdalar. Klassik davrlardan beri shifokorlar va tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari tibbiyot tarixiga pragmatik bilim va kasbiy ilhom olish manbayi sifatida qarashgan. Masalan, Rene Layennek Gippokratning tibbiyot amaliyoti haqidagi ta'limotlaridan ilhom olib, 1804-yili tibbiyot tarixi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

XVIII asrda tibbiyot tarixining qadr-qimmatini haqida yangicha fikrlar paydo bo'la boshladi. Nemis tibbiyot maktabi tibbiyot tarixini o'rganishni tibbiy bilimlar rivojini tushunishning bir usuli sifatida ko'rganlar, ya'ni amaliyotchi shifokorlar o'tmishda qanday usullar orqali insonlarni davolashgan va qanday sabab shifokorlar salbiy natijalarga erishishgan.

Keyinchalik olimlar tibbiyot tarixini tarixning muhim qismi sifatida o'rgana boshladilar. Misol uchun, nemis olimi Kurt Shprengel o'zining besh jildli

“Tibbiyotning pragmatik tarixi haqida ocherk (1792-1803)” asarida tibbiyot tarixining asosiy jihatlarini tasvirlab beradi. Uning fikricha tibbiyot tarixi quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega:

1. Tibbiyot tarixi - shifokor ongi va tafakkuri rivojlanishining asosiy bo‘lagi;
2. Tibbiyot tarixi - tibbiy bilimlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan kuch;
3. Tibbiyot tarixi – shifokorda fuqarolik burchi va mas’uliyatini tarbiyalaydigan vosita;
4. Tibbiyot tarixi – bo‘lajak shifokorlarni intellektual kamtarlik va bag‘rikenglikka o‘rgatish usuli³⁵.

XIX asr davomida tarixchilar o‘tmishga murojaat qilish orqali qimmatli saboqlarni olishga harakat qilishdi. Keyingi o‘n yilliklar davomida nemis olimlari bu dalillarni takrorladilar va takomillashtirdilar, ya’ni tarixni takabburlikka qarshi vosita sifatida taklif qilish, tibbiyot tarixi va tarixiy patologiyani o‘rganish orqali shifokorlarga kasallikning etiologiyasini tushunishlariga yordam berish. Bu borada tibbiyot tarixi - qimmatli gnoseologik vosita ekanligini ta’kidladilar.

Shunga o‘xshash dalillar Fransiya, Angliya va Amerika Qo‘shma Shtatlarida paydo bo‘lgan. Masalan, Tomas Djefferson o‘zining shaxsiy shifokori Robli Dunglisonni Virjiniya universitetida tibbiyot va uning tarixidan dars berish uchun yollagan, chunki "talaba ilm-fanning oldingi taraqqiyotidan nimanidir o‘rganishi kerak" degan tushuncha bo‘lgan³⁶. Demak, tibbiyot tarixi fani barcha davrlarda tibbiyotning asosiy tarmog‘i hisoblangan va uni o‘rganish muhim bo‘lgan.

Tibbiyot tarixiga ijobiy munosabat tufayli 1929-yilda AQSHda “Tibbiyot tarixi instituti” tashkil etiladi. Uning birinchi prezidenti bo‘lgan Ye.Kordell institutning ochilish marosimida quyidagi fikrlarni ta’kidlaydi: “Tibbiyot tarixi nimani va qanday tekshirishni o‘rgatadi. Dunyoqarashni kengaytiradi va fikrni mustahkamlaydi. Eng muhimi, tibbiyot tarixi – e’tibordan chetda qolgan kashfiyotlarni ochish mumkin bo‘lgan boy kondir”. Bu kabi fikrlar tibbiyotning asosiy qismi bo‘lgan ushbu fan ahamiyatini yanada oshishiga olib kelgan.

1960-yillarda AQSHda 19 ta universitetlarda tibbiyot tarixi kafedralari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, Kauntvey tibbiyot tarixi kutubxonasi, Osler tibbiyot tarixi kutubxonasi, Yaledagi tibbiyot kutubxonalari faoliyati rivojlantirildi.

1970-yilda Kanzas universiteti tibbiyot tarixi va falsafasi kafedrasini mudiri Robert Xadson tibbiyot tarixidan dars beradigan o‘qituvchilarni tanqid qilib, fanda Misr yoki Mesopotamiya tibbiyot yutuqlariga haddan ziyod e’tibor berishning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritib, o‘qituvchilar ko‘proq mamlakat tibbiyot tarixi va uning yutuqlariga e’tibor qaratishi lozimligini ta’kidlaydi³⁷. Natijada sal keyinroq AQSH tibbiyot tarixi kafedrasini tashkil etiladi.

XXI asrda tibbiyot tarixini o‘rganish o‘zining ahamiyatini yo‘qotmadi, balki bo‘lajak shifokor o‘rganishi lozim bo‘lgan soha sifatida tan olindi. AQSHning Pensilvaniya universiteti professori S.Lederer va boshqalar o‘zlarining ilmiy

³⁵ Jones, David S., Jeremy A. Greene, Jacalyn Duffin, and John Harley Warner. Making the Case for History in Medical Education // *Journal of the History of Medicine and Allied Sciences* 70 (4) (November 13). – P. 629.

³⁶ Kushner HI, Leighton LS. *Humanities in the Twenty-First Century*. - London: Palgrave Macmillan, 2013. –P. 111.

³⁷ Barsu C. *History of Medicine between tradition and modernism* // *Clujul Medical*. 2017, № 90(2). – P. 243.

tadqiqotida bakalavr bosqichida tahsil olayotgan talabalarga “Tibbiyot tarixi” fanini o‘qitish ularda konvergentlik (biror bir muammo bo‘yicha qat’iy fikrga moyillik) xususiyatini rivojlantirishi haqida fikr bildirishgan³⁸.

AQSHning Xarvard universiteti professori David Djons va boshqalar tibbiyot tarixini tibbiy bilim, fikrlash va amaliyotning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadilar³⁹. Ushbu fan kasallikning sabablari (masalan, vaqt o‘tishi bilan kasallikdagi o‘zgarishlarni hisobga olish uchun zarur bo‘lgan reduksion mexanizmlar), samaradorlik tabiati (masalan, shifokorlar nima uchun ularning davolashlari samarali deb o‘ylashi va ularning davolash usullari o‘tmishda qanday bo‘lganligi va kelajakda qanday bo‘lishi) haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etadi va tahlil qilish imkonini beradi. Bularning barchasi shifokorlar anatomiya yoki patofiziologiyani samarali diagnostika uchun o‘rganishlari kerak bo‘lganidek, tibbiyot tarixini ham oldingi o‘ringa olib chiqadi.

Buyuk Biritaniyaning York universiteti professori N.Metkalf va Ye.Styuartlar o‘zlarining tadqiqotlarida Tibbiyot tarixini o‘qitish talabalarda o‘z kasbiga hurmat hissini uyg‘otish barobarida ularda kasb deontologiyasni shakllantirishga yordam berishini ta’kidlashgan⁴⁰.

Yirik tadqiqotchi – olim V.Beys o‘zining ilmiy ishida Buyuk Britaniyada 1957-1993-yillardagi tibbiy ta’lim haqida fikr yuritib, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida joriy etilgan “Tibbiyot tarixi” kursining afzalliklari haqida fikr yuritadi. Jumladan, olim tibbiy ta’lim talabalariga kasbiy fanlarni o‘zlashtirishi hamda keyinchalik kasbiy faoliyati uchun asos bo‘ladigan shaxs va uning faoliyati, individual xususiyatlari, bilish jarayonlari, Eksklyuziv qobiliyatlarni rivojlantirishda Tibbiyot tarixi fanining o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi⁴¹.

S.Brayan va boshqa olimlar esa tibbiyot tarixi fani bo‘lajak shifokorlarning tarbiyaviy ta’sir etish usullari va vositalari, tarbiya turlari, oilaviy tarbiya asoslari, didaktika va ta’lim jarayonining tuzilishi, ta’lim tamoyillari, ta’lim (pedagogik) texnologiyalari tuzilishi, tasnifi va klinik fanlarda qo‘llanish xususiyatlari, o‘qitishning noan’anaviy usullarini taqiq qilishda muhim ekanligini aytadi⁴².

Italiyaning Parma universiteti professori Emmanuyel Armosida va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda Parma va Boloniya universitetlarida tahsil olayotgan 1-hamda 4- bosqich talabalarida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlili keltirilgan. O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, talabalar tibbiyot tarixi fanini tarixiy-geneseologik nuqtayi – nazardan o‘rganligini keltirilgan, ya’ni 80% talabalar sillabusda keltirilgan mavzularni shaxsiy ustuvorlik (meni) nuqtayi-nazaridan

³⁸ Lederer SE, More ES, Howell JD. Medical history in the undergraduate medical curriculum. // Academic medicine, 1995 Sep; 70(9):770-6.PMID: 7669153. –P.18-53.

³⁹ Jones, David S., Jeremy A. Greene, Jacalyn Duffin, and John Harley Warner. Making the Case for History in Medical Education // Journal of the History of Medicine and Allied Sciences. № 4 (November 13): doi:10.1093/jhmas/jru026. – P.623–652.

⁴⁰ Metcalfe NH, Stuart E. A short history of providing medical history within the British medical undergraduate curriculum. // MedHumanities. 2014 Jun, 40(1). –P. 114-135.

⁴¹ Bates V. Yesterday’s Doctors: The Human Aspects of Medical Education in Britain, 1957–1993 // Medical history, 2017. № 6 (1). – P.48–65.

⁴² Bryan CS, Longo LD. Perspective: teaching and mentoring the history of medicine: an oslerian perspective // Academic Medicine, 2013. № 88 (1). – P.185.

o'rgangan. Bu esa bo'lajak shifokorlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini erta shakllanishiga olib kelganligi ta'kidlangan⁴³.

Kanadalik olimlar M.Kidd va J.Konorlar o'z tadqiqotlarida bo'lajak tibbiyot xodimlariga tibbiyot tarixi fanini o'qitish muhimligini aytib, oliy tibbiy ta'limning maqsadi - bo'lajak shifokorlarda kompetentlik, mas'uliyatlilik, bemorlarga sidqidildan yordam bera olish, rahmdillik kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surishadi⁴⁴.

Germaniyaning Rur universiteti professorlari tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga Bioetika va Tibbiyot tarixi fanlarini o'rgatish ularning eksklyuziv kompetensiyalaridan biri bo'lgan tolerantlik hissini rivojlantirishda muhim ekanligini ta'kidlanadi⁴⁵. Olimlar tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqotlarda talabalarning bu boradagi fikri o'rganilganligi ilmiy ishning qimmatini oshirgan.

Germaniyaning Xerdeke universiteti professori Torsten Langer boshchiligidagi olimlar guruhi tibbiy ta'limda bo'lajak shifokorlarni tayyorlashda tibbiyot tarixi fanini o'rganish muhimligini ta'kidlab, dars davomida Scratch metodi (talaba o'zi xohlagan metod bilan o'rganishini boshqalar bilan o'rtoqlashish) orqali talabalar axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi va talabaning "men"ini shakllantiradi. 1,2 va 5-bosqich talabalarida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalar tibbiyot tarixi fanida kontent-analizdan ko'p foydalanishgani aytilgan⁴⁶.

Germaniyaning Tyubingen universiteti professorlari tibbiyot institutlari talabalariga tibbiyot tarixini sistematik o'rgatish – ularning kognitiv xislatlarini shakllantirishga yordam berishi haqida tadqiqot olib borishgan⁴⁷.

Yana bir olim K.Lundmerer tibbiy ta'limda tibbiyot tarixi kursining o'rni haqida fikr bildirib, kadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha dunyoning turli mamlakatlarida tibbiyot rivojlanishining asosiy bosqichlari va umumiy konuniyatlari hamda turli tarixiy davrlardagi (ibtidoiy jamiyat, kadimgi dunyo, urta asrlar, yangi va eng yangi davrlar) davolash va tibbiyot rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish – bo'lajak shifokorning eng asosiy maqsadi bo'lishi kerakligiga urg'u beradi⁴⁸.

Fransuz olimi M.Xaki tibbiy ta'limda zamonaviy professional rivojlanish modeli haqida fikr yuritib, tibbiyot tarixi - insoniyatning rivojlanish tarixidagi buyuk

⁴³ Armocida E, Nicoli Aldini N, Bussolati O. How do students approach the study of the History of Medicine? Some considerations after the final exams at the first year and fourth year. // *Acta Biomed*, 2021. №92 (2). – P 129.

⁴⁴ Kidd M, Connor J. Striving to do good things: Teaching humanities in Canadian medical schools // *Journal of Medical Humanities*, 2008. № 29 (1) – P.45–54.

⁴⁵ Schulz S, Woestmann B, Huenges B, Schweikardt C, Schafer T. How important is medical ethics and history of medicine teaching in the medical curriculum? An empirical approach towards students' views. // *Med.Ausbild*, 2012. № 29 (1). –P. 105.

⁴⁶ Langer T, Jazmati D, Jung O, Schulz C, Schnell MW. Medical Students' Development of Ethical Judgment - Exploring the Learners' Perspectives using a mixed methods approach // *Journal of Medical Education*, 2016. № 33 (5). – P.72.

⁴⁷ Katharina E. Keifenheim, Martin Teufel, Julianne Ip, Natalie Speiser, Elisabeth J. Leehr, Stephan Zipfel & Anne Herrmann-Werner. Teaching history taking to medical students: a systematic review // *BMC Medical Education* volume 15, 2015. –P.49.

⁴⁸ Lundmerer K. The History of Medicine in Medical Education // *Journal of History of Medical Applied Sciences*, 2015. № 70. – P.656–660.

sivilizatsiyalarning, tibbiyot sohasidagi kashfiyotlarining ahamiyatini ochib berish hamda buyuk allomalar, dunyoning taniqli olimlari va shifokorlari hayoti hamda faoliyati bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi⁴⁹.

Fransiyalik olimlar Lui Kurvaziye va boshqalar tibbiy ta'limda tibbiyot tarixini o'rgatishda "shifokor – pedagog, talaba – bo'lajak shifokor" tizimi asosida ish olib borish talabalarni yanada mustaqil bo'lishga undashini, dars davomida talabani tibbiyotning rivojlanish tarixi bilan tanishtirish, tibbiy bilimlar tarixi, tibbiyotning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar faoliyati bilan tanishtirish - ularni nafaqat, bo'lajak shifokor sifatida kasallik simptomlarini aniqlashda, balki uning kelib chiqishini tahlil qilishga, tekshiruvning obyektiv ma'lumotlarini yetarli darajada talqin qilishni (so'rov, tekshiruv) o'tkazishni hamda ularning sabablarini tushunishni ham o'rgatishini aytadi⁵⁰.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, tibbiyotning turli sohalaridagi integrasion jarayonlar ilmiy-intensiv texnologiyalarning rivojlanishi bilan birgalikda rivojlanmoqda.

Oliy tibbiy ta'limning hamma bosqichlarida va ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida axborot hamda bilimning o'rni oshib bormoqda. Axborot jamiyatida bilim, malaka inson hayotidagi ustuvor qadriyatlarga aylanib bormoqda. Oxirgi yillarda tibbiyot oliy talim muassasalari talabalarining intellektual, axloqiy rivojlanishini rag'batlantiradigan, uning potensial imkoniyatlarini faollashtiradigan hamda tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan ta'limning bu turiga yo'nalish tobora keng tarqalmoqda. Ushbu turdagi mashg'ulotlar doirasida talaba o'zini o'quv-bilish faoliyatining faol sub'ektiv sifatida namoyon etadi.

Xorijiy talabalarga tibbiyot tarixi fanini o'qitish mobaynida ularning ijodiy faolligini rivojlantirish didaktik modelining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatib o'tamiz.

Didaktik model ijodiy aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasi hamda muammoli ta'lim nazariyasiga asoslangan.

Birinchisi, talabalarni bilimlarni o'zlashtirish jarayonini ongli ravishda ijodiy boshqarishga yo'naltirib, e'tiborini tafakkur hamda aql madaniyatining faol, mustaqil rivojlanishiga qaratadi.

Ikkinchisi, ijodiy fikrlashga, o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi, chunki talabaning o'zi muammoni o'zi hal etishi, yangi harakat usulini topishi lozim. Bu nazariyaga asoslanib, talabalar bilim faoliyatining evristik hamda ijodiy darajasiga qaratiladi.

Bunday shakldagi didaktik model tuzilishidan maqsad - xorijiy talabalarining o'quv jarayonida ijodiy faolligini rivojlantirish sharti sifatida alohida ajratilib ko'rsatiladi. Talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish maqsadini ochib berganda, biz uning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ishga yondashamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tibbiyot tarixi fanini o'qitishda quyidagi didaktik vazifalarni belgilab oldik:

⁴⁹ Mainul Haque. Influence of Role Model for Professional Development in Medical Education // Journal of Global Pharma Technology, 2017. №12 (9). –P.10-18.

⁵⁰ Louis-Courvoisier M, Wenger A. How to make the most of history and literature in the teaching of medical humanities: the experience of the University of Geneva // Medical humanities, 2005. № 31(1). – P.51–54.

- xorijiy talabalarning refleksiv ijodiy faoliyat usullari hamda texnikasi bilan qurollantirish;

- xorijiy talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish;

- xorijiy talabalarning kognitiv faolligini rag'batlantirish;

- yangi bilimlarni o'zlashtirgan talabalar hamda ularni ijodiy qo'llash.

Ushbu vazifalarga muvofiq tibbiyot tarixini o'qitish jarayonini quyidagi didaktik faoliyat darajalari aniqlandi:

Birinchi daraja – (past) bu kognitiv faoliyatga qiziqish, uzoq hamda katta intellektual sa'y -harakatlarni talab etadigan ta'lim vazifalariga duch kelganda, salbiy his-tuyg'ular tajribasi hamda ijodiy turdagi muammolarni hal qilishning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Kognitiv faollik faol, lekin kognitiv motivlar dominant emas deganidir, ya'ni ular o'qituvchi tomonidan modellashtirish uchun mo'ljallangan.

Ikkinchi daraja – (o'rta) bu daraja reproduktiv faol uslub, faoliyat talabalari guruhiga xosdir. Bilimga kelsak, u ma'lum ma'lumotlarni yodlashi mumkin, faoliyatda – bu tayyor texnikalarni o'zlashtirishdir. Bunday holda, kognitiv faoliyat ijobiy his-tuyg'ular bilan birga keladi, lekin ular ijodkorlikdan kelib chiqmaydi. Ijodiy faoliyatga yo'nalish yo'q, o'qituvchining nazorat qiluvchi roli saqlanib qolgan.

Uchinchi daraja – (yuqori) ijodiy motivasiya talabalar faoliyatiga ta'sir ko'rsata boshlaydi. Topshiriqlarni ijodiy bajarishga qiziqish ro'y beradi. Bu daraja o'z-o'zini o'qitish, o'zini anglash jarayonida ijodiy faol ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu o'qituvchining murakkab o'quv muammolarini hal etishda ahamiyatsiz ishtiroki bilan sodir bo'ladi.

Demak, xorijiy talabalar faolligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari - ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydigan asosiy vositadir.

Xorijiy talabalarning bo'lajak tibbiyot xodimlari sifatidagi kasbiy mahorati qandaydir aniq qobiliyatlarsiz, shaxsning eksklyuziv kompetensiyalarisiz bo'lmaydi, bular ham faoliyatning o'ziga, ham qaror qabul qilishdagi muhim ko'rsatmalar, kasbiy xarakter va jamiyatga mos tarzda yashash muhitiga bog'liq.

Yuqorida tilga olingan qobiliyatlar esa aynan kasbiy qobiliyatlar tizimida mavjud va bo'lajak tibbiyot xodimlarini eksklyuziv kompetentligini shakllantirishda yetarli darajada muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Tibbiy ta'limda tibbiyot tarixi fanini o'qitishda eksklyuziv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida tibbiyot tarixini o'qitishda Explore, Pair, Share pedagogik metodining tahlili, Connect-Extend-Challenge modeli orqali o'qitish jarayonida xorijiy talabalarning eksklyuziv kompetentligini shakllantirish aspektlari hamda Tibbiyot tarixi fanini o'qitishning yangi modeli – Retro, now, future va uning afzalliklari haqida fikr bildirilgan.

Explore, Pair, Share pedagogik modeli orqali tibbiyot tarixini o'rgatishda talabani tibbiyotning rivojlanish tarixi bilan tanishtirish, tibbiy bilimlar tarixi, tibbiyotning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar faoliyati bilan tanishtirish -

xorijiy talabalarni nafaqat, bo'lajak shifokor sifatida kasallik simptomlarini aniqlashda uning kelib chiqishini tahlil qilishga, balki tekshiruvning obyektiv ma'lumotlarini yetarli darajada talqin qilishni (so'rov, tekshiruv) hamda ularning sabablarini tushunishni ham o'rgatadi. Shu bilan birga, shifokor – pedagog muqarrar ravishda shaxsning murakkabligi, nomuvofiqligi, doimiy o'zgaruvchanligi va o'ziga xosligini tan olishning gumanistik jarayonlariga duch keladi.

O'qitish usullari pedagogik jarayonning maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda natijalarini nazorat qilishning asosiy komponentlari sanaladi. Explore, Pair, Share pedagogik modeli orqali tibbiyot tarixini o'qitish quyidagilarga xizmat qiladi:

- pedagog va talabaning o'zaro ma'lumot almashishi orqali amalga oshiriladi, ya'ni muloqot orqali ma'lumot almashish, taqdimotlar orqali ma'lumot almashishlar kabi;

- belgilangan guruh liderlari yordamida, to'g'ridan – to'g'ri, yoki o'z – o'zini nazorat qilish orqali talabalarning bilim faoliyatini boshqarish;


- pedagogning talabalar bilan frontal, jamoviy yoki individual tarzda muloqot qilishlari orqali;

- rag'batlantirish, motivasiya berish va deontologik tarbiya berish orqali;

- ta'lim jarayoni samaradorligini monitoring qilish orqali.

Xorijiy talabalarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish esa tibbiyot tarixining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Ushbu tarkibiy element tarix fanlari turkumi ("Qadimgi dunyo tarixi", "O'rta asrlar tarixi", "Yangi tarix", "Eng yangi tarix", "O'zbekiston tarixi", "Mustaqillik yillarida O'zbekiston tibbiyotining rivojlanishi", "O'zbekistonning eng yangi tarixi")ni o'qitish, talabalarning mustaqil ta'lim shaklini tarixiy mavzularda tashkil qilish jarayonining umumiy mohiyatini ifodalaydi. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda talabalar tomonidan tibbiyot tarixi tarixi fani asoslarining mustaqil o'zlashtirilishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni – pedagogik amaliyot ham muhim o'rin tutadi hamda bo'lajak tibbiyot xodimlarini tayyorlashda ushbu masalani inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy talabalarning tibbiyot tarixiga oid bilimlarini rivojlantirishda ularning muayyan darajada tarixiy bilimlarni, tarixiy sanalarni samarali o'zlashtirish, tarixiy voqea, hodisa va jarayonlarning mazmunini tahlil qilish, sabab-oqibatlarini hamda o'zaro aloqadorligini baholay olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishi muhimdir. Bo'lajak shifokor sifatida xorijiy talabalarning tarixiy tafakkurga ega bo'lishining yana bir muhim sharti – ular tomonidan tibbiyotga doir tarixiy hujjatlar bilan ishlay olish kompetensiyalarining muvaffaqiyatli o'zlashtira olishiga erishish sanaladi.



2- rasm. Xorijiy talabalarining bo‘lajak shifokor sifatida tibbiyot tarixini o‘qitish orqali eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish modeli

Bunday tafakkur o‘z navbatida talabalar – bo‘lajak shifokorlarning milliy g‘urur va vatanparvarlik sifatlariga ega bo‘lishlariga erishish uchun ham zamin yaratadi.

Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida xorijiy talabalarning tarixiy tafakkurini va eksklyuziv kompetensiyalarini tibbiyot tarixi orqali rivojlantirish jarayonida Connect-Extend-Challenge modelini qo‘llash muhim rol o‘ynaydi.

Quyidagi holatlar ushbu model orqali samaradorlikka erishishni kafolatlaydigan muhi jihatlardir:

- zamonaviy sharoitda xorijiy talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ijtimoiy ahamiyatga ega masala ekaniga e‘tiborni qaratish;

- xorijiy talabalarda tibbiyot tarixi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirish mazmunini yorituvchi kognitiv-metodologik asoslarni ishlab chiqish;

- talabalarda dars davomida tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavjud didaktik, texnik va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- talabalarning eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishga yordam beruvchi innovasion shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

- xorijiy talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy tarixiy bilim, ularni amaliyotda samarali qo‘llash ko‘nikma, malaka, tajribalardan amaliyotda maqsadli, oqilona foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Shuningdek, Connect-Extend-Challenge modeli orqali xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini quyidagi metodlar yordamida baholash mumkin:

- 1) ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini bevosita o‘rganish metodlari (pedagogik kuzatish, retrospektiv ish hujjatlari va o‘quv hamda kasbiy faoliyat rejalarini o‘rganish, suhbat, tahlil, boshqalar);

- 2) eksklyuziv kompetentlilik darajasini tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, test va boshqalar).

Mazkur jarayonda xorijiy talabalarda bo‘lajak faoliyat rejalarini puxta ishlab chiqish, individual va mustaqil ta‘lim olish, ularda o‘quv-bilish faoliyatini individual va mustaqil tashkil qilish, ta‘limiy natijalarni reflektiv o‘rganish malakasi, tajribasi, kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Yuqoridagi mezon asosida Retro, now, future modeli orqali o‘qituvchi tibbiyot tarixida o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun aqliy texnika va o‘quv tuzilmalaridan foydalanadi. Ta‘lim tamoyiliga ko‘ra, ular jamoalar va juftlikka bo‘linadi.

Retro, now, future modeli – o‘zaro munosabatda bo‘lish, suhbat tarzida bo‘lish, kimdir bilan muloqot qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, boshqa usullardan farqli o‘laroq, nafaqat o‘qituvchi bilan balki talabalar bir-biri bilan ham kengroq o‘zaro munosabatda bo‘lishga, o‘quv jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan.

Retro, now, future modelining vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda qiziqish uyg‘otish;

- o‘quv materialini samarali o‘zlashtirish;

- talabalarning qo‘yilgan o‘quv vazifasini hal qilish yo‘llari va variantlarini mustaqil ravishda izlash (taklif yetilgan variantlardan birini tanlash yoki o‘z variantini topish va yechimni asoslash);

- jamoada ishlashni, har qanday nuqtai nazarga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni, har kimning so'z erkinligi huquqini hurmat qilishni, uning qadr-qimmatini hurmat qilishni o'rganish;

- talabalarda o'z fikrini shakllantirish;

- hayotiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish.

Yuqoridagi nazariy tahlil va xuloslardan kelib chiqib, tibbiy ta'lim xorijiy talabalari eksklyuziv kompetensiyalarining rivojlanganlik mezonlari - tibbiy ta'lim xorijiy talabalari eksklyuziv kompetentligini tibbiyot tarixi orqali rivojlantirishning mezoni hamda komponentlarini aniqlashda talabaning eksklyuziv kompetentligi haqidagi bilimlariga ega ekanligi, ularning asl maqsadi hamda faoliyat natijalarini yaxshi tushunishlari va pedagogik vaziyatlarda buning uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lishi ko'zda tutildi. O'tkazilgan tahlillar xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib boradigan tajriba – tadqiqot ishlarimizni mazmunini belgilab berdi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Tibbiyot tarixini o'qitishda xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari va uning samaradorligi”** deb nomlanib, unda xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, shuningdek, tibbiy ta'limda tibbiyot tarixini tadbiq etish natijalarining samaradorligi ko'rsatib o'tilgan.

Xorijiy talabalarning tibbiyot tarixi fani orqali eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish masalasining nazariy asoslari, shuningdek, xorijiy talabalarda eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning modeli, ushbu modelning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarning aniqlanishi bizga tajriba-sinovishlarining maqsadi, mazmuni va vazifalarini belgilab olishga yordam beradi, ya'ni tajriba-sinovishlarining maqsadi – xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shartlarni amalda sinab ko'rishni va baholashni nazarda tutadi.

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi vazifalar bajarildi:

– xorijiy talabalar eksklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirishning boshlang'ich darajasini aniqlash va tahlil qilish;

– xorijiy talabalarni o'quv jarayoniga tayyorlashda eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning modelini tadbiq qilish;

– xorijiy talabalarda eksklyuziv kompetensiyalar fazilatlarini rivojlantirishning daraja va ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish va tahlil qilish;

– xorijiy talabalarda eksklyuziv kompetensiyalar fazilatlarini rivojlantirishning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun tajriba-sinov ishlarining tashkiliy bosqichlari - qayd qiluvchi, shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi bosqichlari aniqlab olindi.

1-jadval

Xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish ko'rsatkichlari

T/r	Guruhlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		Talabalar umumiy soni	Yuqori	O'rta	Past	Talabalar umumiy soni	Yuqori	O'rta	Past
«Davolash ishi» yo'nalishi (xorijiy guruhlar)									
1	I	47	19	23	5	48	5	32	11
2	II	46	20	21	5	48	6	29	13
3	III	50	23	25	2	48	5	30	13
Jami		143	62	69	12	144	16	91	37
Foizlarda		100%	43,4	48,3	8,3	100%	11,1	63,2	25,7
«Davolash ishi» yo'nalishi (o'zbek guruhlari)									
1	I	60	24	30	6	58	7	35	16
2	II	60	25	28	7	58	8	36	14
3	III	60	28	28	4	58	7	38	13
Jami		180	77	86	17	174	22	109	43
Foizlarda		100%	42,8	47,8	9,4	100%	12,6	62,6	24,8
Xammasi		323	139	155	29	318	38	200	80
Foizlarda		100%	43,0	48,0	9,0	100%	12,0	63,0	25,0

Tadqiqotning samaradorligini obyektiv baholash maqsadida nazorat guruhi uchun ham respondentlar tasodifiy tanlash yo'li bilan jalb etildi.

Tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba yakunidagi (T.y) ma'lumotlarni umumiy jadvalini keltiramiz.

2-jadval

Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining samaradorlik darajasini aniqlash ko'rsatkichlari (tajriba avvali va yakunida)

Tajriba sinov obyektlari	Tajriba sinfi (323 nafar respondent)						Nazorat sinfi (318 nafar respondent)					
	Yuqori		O'rta		Past		Yuqori		O'rta		Past	
	T.a	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.
«Davolash ishi» yo'nalishi (xorijiy guruhlar)	18	62	89	69	36	12	15	16	87	91	42	37
«Davolash ishi» yo'nalishi (o'zbek guruhlari)	23	77	108	86	49	17	21	22	106	109	47	43
Jami	41	139	197	155	85	29	36	38	193	200	89	80

Tajriba-sinov ishlarining avvali va yakuniy bosqichida talabalar faoliyatini tahlil yetish, ularning ingliz tili darslarida leksik kompetensiyasini rivojlantirish

texnologiyalarining samaradorlik darajalarini baholash bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlarni qo'lga kiritdik .

Jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, sinov va nazorat guruhleri taqqoslandi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining samaradorlik darajasi bo'yicha ma'lumotlarning solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	«Davolash ishi» yo'nalishi (xorijiy guruhlar)	62	69	12	143
«Davolash ishi» yo'nalishi (o'zbek guruhleri)	77	86	17	180	
Jami	139	155	29	323	
Nazorat guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	«Davolash ishi» yo'nalishi (xorijiy guruhlar)	16	91	37	144
«Davolash ishi» yo'nalishi (o'zbek guruhleri)	22	109	43	174	
Jami	38	200	80	318	

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba sinfidagi o'quvchilarda nazorat sinfidagi o'quvchilarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Matematik-statistik tahlil qilish uchun o'rtacha umumiy ballni olindi. Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba-sinov ishlari yakunidagi umumiy ko'rsatkichlari (4-jadval).

4-jadval


Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarining samaradorlik darajasi (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari		
		yuqori	o'rtacha	past
Tajriba guruhlar	323	139	155	29
		43	48	9
Nazorat guruhlar	318	38	200	80
		12	63	25

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhi talabalari nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini

tasdiqlaydi. Tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichdagi kabi tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan tanlanmalar sifatida belgilanib yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha variasion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini taqqoslash maqsadida quyidagi diagrammani hosil qilamiz.



3-rasm. Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari darajasining diagrammasi

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o'rta ko'rsatkichlar nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi statistik ko'rsatkichlarning o'rta qiymati, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari quyidagi jadvalda aks ettirildi (5-jadval).

5-jadval

Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko'rsatkichlari

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
2,34	1,87	0,4044	0,3531	1,52	1,77	9,4	639	87,17	0,07	0,06

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum $\bar{X}=2,34$; $\bar{Y}=1,87$; $\Delta_x = 0,07$; $\Delta_y = 0,06$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,34 - 0,07}{1,87 + 0,06} = \frac{2,27}{1,93} \approx 1,17 > 1;$$

Bilish darajasini ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\text{od6}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,34 - 0,07) - (1,87 - 0,06) = 2,27 - 1,81 = 0,46 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligini orqali ko'rish mumkin. Demak, tajriba-sinov ishlari natijasida Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha bo'yicha talabalar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

Demak, xorijiy talabalarda tibbiyot tarixi orqali eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlanganlik darajasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi hamda xorijiy talabalarning eksklyuziv kompetentligini tibbiyot tarixi orqali rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga kiritilgan didaktik shart-sharoitlar va tarkibiy qismlarning samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtacha 15,7 %ni tashkil qildi.

Shuningdek, nazorat va eksperimental guruhlar natijalarining statistik jihatdan muhim farqi shuni ko'rsatadiki, aniqlangan pedagogik shartlarning bajarilishi nazorat bilan taqqoslaganda eksperimental guruhda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanish darajasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Jadvaldagi natijalardan ko'rinib turibdiki, olib borilgan tadqiqotlardan keyin xorijiy talabalarning eksklyuziv kompetentligini tibbiyot tarixi orqali rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga kiritilgan didaktik shart-sharoitlar va tarkibiy qismlarning samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtacha 15,6%ni tashkil qildi va xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini tibbiyot tarixi orqali rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlarning samaradorligi haqidagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi tibbiy ta'limni rivojlantirish markazi bilan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Davolash ishi yo'nalishining Tibbiyot tarixi modul dasturini tayyorlashda "O'zbek xonliklari va Sovet tuzumi davrlarida tibbiyot rivojlanishining o'ziga xos tomonlari", "O'zbekistonda sog'liqni saqlash davlat tizimining barpo etilishi va oliy tibbiy ta'lim tizimining rivojlanishi" mavzulari kiritildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida faoliyatimizning yana bir muhim yo'nalishi Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligi sifatida belgilandi.

XULOSALAR

1. Xorijiy talabalarni tibbiyot tarixi orqali namunali ziyoli, yuksak malakali mutaxassis, keng tajribaga ega, madaniyatli, ijodiy faol, o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashuvchi, bemorlar bilan erkin muloqotga kirisha oladigan, o'z sohasiga doir zamonaviy bilmilarga ega shifokor – pedagog sifatida tayyorlash - tibbiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Tibbiy ta'limda tibbiyot tarixining umumiy tendensiyalarini rivojlantirish, o'quv jarayonini maqsadli tashkil etish, o'quv jarayonining umumiy strategiyasini tashkil qilish hamda davolash ishi yo'nalishi xorijiy talabalarining nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda fanlararo integrasiyasiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

3. Tibbiyot tarixini o'qitishda xorijiy talabalarni Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'quv jarayoniga ta'sir etadigan omillar: individual moyillik, ijtimoiy moyillik, o'smirlik davrida shakllangan bola hayotining sharoitlari, jamiyatdagi shaxslarning sog'liqni saqlashdagi imkoniyatlari, sog'liqni saqlashdagi ta'limning vazifalari, tibbiy ta'limdagi o'qitish usullari, tibbiy ta'limni

rivojlantirishdagi kasbiy faoliyat modeli vositasida tarbiyalash ular kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Tibbiy ta'limda tibbiyot tarixi fani o'quv jarayonini tashkil etishning barcha komponentlari yagona tizimga birlashtirilib, xorijiy talabalarning pedagogik faoliyatidagi tadqiqot ishlarining yagona tavsifi sifatida qisqa diagrammalar, jadvallar ko'rinishida taqdim etilganligi hamda raqamli texnologiyalar orqali eksklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan.

5. Tibbiyot oliy ta'lim muassalari xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini tibbiyot tarixi orqali rivojlantirish – murakkab, uzoq davom etadigan, izchil rivojlanib boruvchi jarayon bo'lib, bunda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilaridan hamkorlikda ishlash talab qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi o'tkaziladigan seminar - treninglarning asosga egaligi, tizimliliigi, kreativligi, o'tkazilayotgan tadbirlarning samaradorligiga, talabalar uchun o'zini o'zi rivojlantirishning eng maqbul shart-sharoitlarini yaratish kabi omillarga bog'liqligi ko'psatilgan.

6. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida joriy etilgan yangi metodikalarning samaradorligini tasdiqladi.

7. Tadqiqotda xorijiy talabalarning bo'lajak shifokor sifatida eksklyuziv kompetentligini rivojlantirishning motivasion, kognitiv, shaxsiy faoliyat mezonlari ishlab chiqildi va ularning kompleks qo'llanilishi qo'lga kiritilgan natijalarning xolisligi va yuqoriligini ta'minladi.

8. Xorijiy talabalarning eksklyuziv kompetentligini tibbiyot tarixi orqali rivojlantirishga qaratilgan nazariy tadqiqot va tajriba-sinovishlari natijalaridan kelib chiqib, xorijiy talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etishi o'z tasdig'ini topdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

– tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot tarixi faniga aloqador bo'lgan fanlar orqali xorijiy talabalar kasbiy faoliyatini hamda eksklyuziv kompetentligini rivojlantiruvchi integral ma'ruzalar rejalarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirib borish;

– xorijiy talabalarda eksklyuziv kompetensiyalarni tibbiyot tarixi orqali rivojlantirishda malakali shifokorlardan hamda xorijlik professor - o'qituvchilar tajribalaridan foydalanishni ko'zda tutuvchi keyslardan, metodikalardan samarali foydalanish;

– tibbiyot oliy ta'lim muassalari xorijiy talabalarida eksklyuziv kompetensiyalar tizimini takomillashtirishda tyutorlar faoliyatini hamda ularning xorijiy talabalar bilan ishlash rejalarini talabalarning mutaxassisliklari doirasida takomillashtirib borish;

– xorijiy talabalarga ijodiy tajriba orttirish uchun sharoit yaratib berish hamda ularni nafaqat shifokor balki shifokor – pedagog sifatida shakllantirish uchun imkoniyat yaratish va ularning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini kengaytirish ular eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratib, kasbiy motivasiyasini shakllantirish;

– tibbiyot tarixiga oid yangi metodikalarni muntazam berib borish hamda xorijning yetakchi tibbiyot oliy o'quv yurtlari bilan vebinarlar, integral ma'ruzalarni yo'lga qo'yish, shu orqali xorijiy talabalarni eksklyuziv kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ МЕДИЦИНСКОМ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ**

**ФЕРГАНСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ОБЩЕСТВЕННОГО
ЗДОРОВЬЯ**

КОМИЛОВ НОДИРБЕК БОКИЖОНОВИЧ

**ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЭКСКЛЮЗИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ
ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ МЕДИЦИНСКОГО
ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ
МЕДИЦИНЫ)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания.

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)

Фергана – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.1.DSc/Ped280

Диссертация выполнена в Ферганском медицинском институте общественного здоровья.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.fjsti.uz) и на информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Кадирова Мунира Расуловна,**
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Эгамбердиева Тургьюной Ахмаджановна**
доктор педагогических наук, профессор

Абдуллаев Равшанбек Мамажанович
доктор медицинских наук, профессор

Абдуллаев Сафибулло Хабибуллаевич
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: Андижанский государственный медицинский институт

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании разового Научного совета при научном совете PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 по присуждению ученых степеней при Ферганском медицинском институте общественного здоровья (Адрес: 150100, город Фергана, улица Янги Турон, дом. 2а Тел.: +998(95) 202-23-45; факс: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского медицинского института общественного здоровья (зарегистрировано за № ____). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Янги Турон, дом. 2а Тел.: +998(95) 202-23-45; факс: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.

(протокол рассылки № ____ от «___» _____ 2024 года).

А.А.Сидиков
Председатель разового Научного Совета по присуждению ученых степеней, д.м.н., профессор

М.Ж.Ашурова
Ученый секретарь разового Научного Совета по присуждению ученых степеней, к.м.н., доцент

Н.Ш.Эркабоева
Председатель Научного семинара при разовом Научном Совете по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В системе медицинского образования развитых стран мира одним из направлений, играющих важную роль в подготовке полностью зрелых и компетентных медицинских кадров, достижений целей, поставленных обществом и в профессиональной деятельности, являются знания истории медицины. Проведение исследований по истории медицины и проведение научных исследований, связанных с профессиональной культурой, профессиональным отношением иностранных студентов к мировой медицине и ее профессиональным деонтологом, а также задачами, определенными в «Международном кодексе медицинской этики», определяющем основные направления современной медицины, стратегия медицинского образования служит основным фактором определения.

В ведущих мировых научно-исследовательских учреждениях по данной проблеме, в том числе в Университете Джона Хопкинса (США), создан мультимедийный образовательный центр, реализующий интенсивные образовательные программы по развитию исторического мышления при изучении истории медицины у молодежи, а также в Кембриджском университете (Великобритания) был реализован «интернет-проект» как специализированный формат «пропаганды» толерантности, т. е. вовлечения людей в решение проблем в интерактивной сети, системе человеческих отношений в профессии врача, педагогики, свободного обмена опытом и на основе технологии межкультурного взаимопонимания, также, обеспечивая взаимогармонию исключительной компетентности со способностями студента, важным становится развитие профессиональных способностей будущих врачей и их умения применять их на практике.

Ускоренное развитие социальной сферы в нашей стране, разработка стратегий медицинского образования имеет важное значение и для медицинского образования нашей страны⁵¹, способного готовить будущих врачей к эффективной деятельности в обществе, формировать в нем такие важные личностные качества, как “верность идеям независимости, верность национальным традициям, таким как гуманизм и высокая духовность”. Следовательно, сравнительный анализ современной медицины наряду с историческим мышлением студентов в процессе изучения дисциплин, связанных с историей медицины, потребовал уточнения социально – педагогических особенностей их профессиональных качеств, разработки технологии развития их профессионального мышления⁵².

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит для осуществления задач, указанных в нормативно-правовых

⁵¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № УП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования». Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. 20.04.2017 г., <https://lex.uz/docs/3171590>

⁵² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года». Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. 29.10.2020 г., <https://lex.uz/docs/5073447?ONDATE2=30.10.2020&action=compare>

